

**7-sinf “Hind okeani” mavzusini pedagogik texnologiyalar
yordamida o`qitilishi**

F.S.Meliboyeva

QDPI geografiya va iqtisodiy bilim asoslari

kafedrası katta o`qituvchisi

Z.O.Jalilova - talaba

***Annotatsiya:** Ushbu tesizda Hind okeani mavzusi haqida atamalar zanjiri, aqliy hujum, Insert hamda klaster metodlari yordamida ma`lumotlar berilgan.*

***Kalit so`zlar:** Hind okeani, atamalar zanjiri, aqliy hujum, Insert, klaster.*

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan mamlakatimizning rivojlantirishning 2022-2026 yillarga mo`ljallangan Yangi O`zbekistonning taraqqiyot strategiyasi doirasida davlat va jamiyat hayotining tubdan isloh qilishga qaratilgan 300 yaqin qonun, 4 mingdan ziyod O`zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari qabul qilindi. Yangi O`zbekistonning taraqqiyot strategiyasida Yangi O`zbekistonni barpo etishning zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy hamda ilmiy-ma`rifiy sohalarni rivojlantirishga qaratilgan bir qator yangiliklar, qarorlar, har bir soha hamda soha vakillari uchun alohida maqsad va vazifalar ishlab chiqilgan. Xususan, bu sohalarda ta`lim sifatini oshirish bo`yicha strategiyaning **41-maqsadida** maktablarni rivojlantirishda yangi maktablar qurish, xususiy maktablarni ko`paytirish, ta`lim sifatini oshirishni nazarda tutuvchi milliy dasturlar ishlab chiqarish, o`quv o`rinlar sonini 2026-yil yakuniga qadar 6,4million nafargacha yetkazish, kompyuter va IT texnologiyalari sohasida bilim va ko`nikmalarga ega bo`lishlari uchun zarur jihozlar bilan ta`minlangan 100mindan ortiq bepul to`garaklar faoliyatini yo`lga qo`yish, chekka hududlarda maktab hamda maktabgacha ta`lim muassasalarigacha transport qatnovini yo`lga qo`yish kabi maqsadlar qo`yilgan.

So`ngi yillarda ta`lim borasida ko`plab yangiliklar olib borilmoqda. Shu sababli

dars sifatini oshirish maqsadida maktab darsliklari ham yagittan ko`rib chiqilib, maktab darsliklaridagi ma`lumotlar har bir sinf o`quvchilari uchun yosh doirasidan kelib chiqilgan holda yangi darsliklar ishlab chiqildi. 7-sinflar **uchun** 2017-yil qayta ishlangan “O`rta Osiyo tabiiy geografiyasi O`zbekiston tabiiy geografiyasi” kitobi 2022-yilda qaytadan ko`rib chiqilib, butunlay yangi ko`rinishda M.T.Mirakmalov, Sh.M.Sharipov, M.M.Avezov, M.T.Hojievalar tomonidan tuzilib chiqqan bo`lib, mazkur kitobda Yer yuzidagi yirik suvlik va qurukliklar-materiklar va okeanlar, ularning qisimlari tabiati, ularda sodir bo`layotgan o`zgarishlar, materiklar va okeanlarni o`rgangan sayyohlarning faoliyati, turli materiklar iqlimi, suvlari, tabiat zonalari, okeanlar va ularning yirik qismlari-dengizlar, qo`ltiq va bo`gizlar tabiati haqida eng so`ngi qiziqarli ma`lumotlar berilgan.

Geografiya fanini o`rganishda o`quvchilarni bilish faoliyatini faollashtirish uchun o`quvchilarni o`tgan mavzulari yuzasidan o`zlashtirgan bilim, ko`nikma va malakalarini aniqlash, ularni tizimlashtirish, yangi mavzu yuzasidan o`zlashtirilgan bilim, ko`nikma va malakalarni nazorat qilish va baholash, shuningdek, yangi mavzuni o`rganish jarayonida lokal texnologiyalardan foydalanish ijobiy natija beradi. Umumta`lim maktablarini VII-sinf “Hind okeani” mavzusini o`qitishda lokal darajadagi pedagogik texnologiyalarning quyidagi turlardan foydalanishimiz mumkin:

- Atamalar zanjiri;
- Aqliy hujum;
- Insert;
- Klaster.

“Atamalar zanjiri” bu atamalar va ularning ta`riflari bo`lib, ulardan o`qituvchi o`tgan mavzuni yakunlash, yangi o`rganilgan mavzu yuzasidan o`quvchilarning bilimlarini mustahkamlash maqsadida darsning bir qismida foydalanganligi sababli, ularni lokal texnologiyalar guruhiga kiritish maqsadga muvofiq.

“Atamalar zanjiri”dan o`tgan mavzuni yakunlash qismida foydalanilganda o`quvchilarning kichik guruh a`zolaridan og`zaki holda atamalatni ketma-ket avvalgilarini takrorlagan holda mazmuni va mohiyatiga ko`ra o`zaro bog`liq holda

yangi atama qo'shishi talab etiladi. Guruhning birinchi ishtirokchisi bitta atama bilan boshlagan o'yin yakunida guruh a'zolari soniga teng atamalar zanjiri vujudga keladi. Ikkinchi bosqichda mazkur atamalarga ta'rif berish va ularni izohlash talab etiladi.

Masalan: Hind okeani+76 mln kv km+Chellenjer+Zond cho'kmasi+7729 m+Qizil dengiz+Bengliya qo'ltig'i.....

Geografiya darsida faktik materiallarni o'rganishda Insert usulidan ham foydalanishimiz mumkin. Insert lokal darajadagi pedagogik usullar guruhiga mansub bo'lib, o'quvchilar tomonidan o'quv materialidagi asosiy g'oya va faktik materiallarni aniqlashga zamin yaratish maqsadida qo'llaniladi. O'quvchilarda Insert usulidan foydalanish tartibi va ko'nikmalarini rivojlantirish uchun ularga o'rganiladigan o'quv materiallari, to'ldirilishi kerak bo'lgan maxsus jadval tarqatiladi. O'quvchilar maxsus jadvalni o'rganib chiqib, «V; +; -; ?» belgilari orqali o'z fikrini ifodalaydi.

Matnni belgilash tizmi

(V) – Bilaman;

(+) – Ma'qullayman;

(-) – O'rganish lozim;

(?) – Tushunmadim;

Hind okeani


Tushunchalar	V	+	-	?
Asosiy xususiyatlari				
O'rganilish tarixi				
Okean tubi relyefi				
Organik dunyosi				
Okeanning tabiat mintaqalari				
Iqilimi				

Ushbu Insert usulidan umumta'lim maktablarini VII sinf "Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi" darsida Hind okeani mavzusi o'rganilayotganda

foydalanildi.

Klaster –cluster-ingliz tilida shajara degan ma`noni bildiradi. Ushbu lokal texnologiya o`quvchilar tomonidan o`zlashtirilgan va o`zlashtiriladigan g`oya, nazariya, qonuniyat hamda tushunchalar o`rtasidagi bog`lanishni anglash, bir-biriga uzviylikini tushunishga imkon yaratib tahliliy-tanqidiy fikr yuritish ko`nikmalarini rivojlantirishga zamin tayyorlaydi.

Klasterdan foydalaniladigan darslarda o`quvchilar teng sonli kichik guruhlariga ajratilib ,ularga o`quv topshirig`ining didaktik maqsadi va bajarilish tartibi tushuntirilgandan so`ng, ular belgilangan vaqt ichida fikrlarini jamlab, o`zlari tuzgan Klasterni hamoya qilib, fikrlarini dalillashga imkon yaratilib, eng yaxshi va asosli tuzilgan Klaster aniqlanadi, g`oliblar rag`batlantiriladi.



O`tilgan mavzu ya`ni “Hind okeani” mavzusi quyida keltirilgan miyyani rivojlantiruvchi blits savollar orqali mustahkamlandi. Blits savollar quyidagilar:

- 1.Hind okeanining ma`nosi nima?
- 2.Hind okeanining o`ziga xos xususiyatlari qanday?

3. Kimlar Hind okeanini o`rganishgan?
4. Eng dastavval qayerlik olimlar Hind okeanini o`rganishgan?
5. Nima uchun okeanning shimoliy va janubiy qismlaridagi suv yuzsining harorati bir biridan farq qiladi?
6. Okeanning iqlimi qanday?
7. Okean flora va faunaga qanchalik boy?
8. Okean uchun qanday tabiat mintaqalari xos?

Kabi qisqacha savollar yordamida o`tilgan yangi mavzu mustahkamlanib olindi.

Uyga vazifa:

1. O`tilgan mavzuni o`qib kelish,
2. Mavzuni oxiridagi savollarga javob topib kelish,
3. Hind okeanini yozuvsiz xaritaga tushurish.

Xulosa qilib aytish mumkinki 7-sinf "Hind okeani" mavzusini o`qitishda lokal darajadagi metodlar ya`ni aqliy hujum, klaster, atamalar zanjiri, insert jadvali kabi texnologiyalardan foydalanib o`quvchilarga qiziqarli dars tashkil etish o`z samarasini berdi. Bu metodlaridan dars jarayonida foydalanish natijasida o`quvchilarni darsga bo`lgan, fanga bo`lgan qiziqishlarini yanada oshirish hamda o`quvchilar e`tiborini jalb eta olish va yangi bilimlar egallashni yanada osonlashtirishga erishildi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Geografiya o`qitish metodikasi. H.Vaxobov, N.R.Alimkulov, N.B.Sultanova Toshkent-2021.
2. Бердиев, Файратжон Хасанбоевич, and Феруза Солижонова Мелибоева. "СУВ РЕСУРСЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ТРАНСЧЕГАРАВИЙ МУАММОЛАРИ." *Интернаука* 10-4 (2017): 29-31.
3. Мелибоева, Феруза Солижонова, and Файратжон Хасанбоевич Бердиев. "СУВ ТАҚЧИЛЛИГИДА СУҒОРИШ УЧУН ОҚАВА СУВИДАН ФОЙЛАНИШ ИМКОНИАТЛАРИНИ БАХОЛАШ." *Интернаука* 10-4 (2017): 31-34.

4. Мелибоева, Феруза Солижоновна. "ФАРҒОНА ВОДИЙСИ СУВ РЕСУРСЛАРИ ВА УЛАРНИНГ ХАЛҚ ХЎЖАЛИГИДАГИ АҲАМИЯТИ." *Интернаука* 10-4 (2017): 34-36.
5. Мелибаева, Феруза Солижановна, and Баходир Асамович Камалов. "Оценка возможности использования канализационных сточных вод для орошения при нехватке оросительной воды." *Europaische Fachhochschule* 1 (2016): 3-6.
6. Мелибаева, Ф. С. "Распространение инфекционных заболеваний в кишлаках юго-западной части Дангаринского района Ферганской области." *Материалы республиканской конференции "Актуальные вопросы охраны окружающей среды Узбекистана"*. Самарканд. 2013.
7. Meliboeva, F. S. "GEOGRAPHICAL FEATURES OF MANUFACTURING AND HUMAN HEALTH." *Экономика и социум* 2-1 (93) (2022): 73-76.